TA’LIM TIZIMIGA OID LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH VA BOSHQARISH XUSUSIYATLARI

Nabijonov Muhammadjalil Tolibjon o‘g‘li
Toshkent moliya instituti magistranti
muhammadjalil0095@mail.com
J. Hoshimov
Ilmiy rahbar. Ph.D

Bugungi kunda ta’lim tizimida keng islohatlar va tub o‘zgarishlar olib borilmoqda. Davlatimiz tomonidan Respublika bo‘ylab yoshlarimizni bilim va milliy qadryatiga mos ravishda ta’lim tizimiga oid loyihalar ustida ish olib borilmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim tizim faoliyatining samaradorligi bir qator ichki omilllarga bog‘liq: Resus bazasi, kadr resurslari tashkil etish shakillari. Ular bilan ta’lim oluvchi jamiyatning bilim va malakaga bo‘lgan ehtiyojlarning mexanizimi muhim ro‘l o‘ynaydi, sababi tizimning samaradorligi ta’lim foydalaniladigan resurslar miqdori bilan belgilanmaydi va uning milliy iqtisodiyot talablariga muvofiqligi darajasi hamda ummumiy aholi va ta’lim oluvchi shaxslarga bog‘liq.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini resurslar bilan to‘yinturish zarur, bu esa uni extiyojlarga moslashtirish imkonini beradi, xususan yuqori malakali mutaxasisslarga ehtiyoj ortib borayotgan mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur. Mamlakatimizda ta’lim tizimga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi, uning doimiy o‘sib borishi va bozor iqtisodiyotining yangi talablari ta’lim tizimida uzluksiz o‘zgarishlarga turtki bo‘ladi. Ta’lim, ta’lim bozorini shakillantirish va rivojlantirish bu umuman mamlakat xalq xo‘jaligida xizmatlarni takomillashtirishni taqazo qiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida mahaliy va xorijiy sanoat bilan hamkorlik yetarlik darajada rivojlanmagani, ustuvor texnik yo‘nalishlar bo‘yicha labaratoriyaning yetishmasligi, yuqori reyting(TOP-1000)ga ega OTMlar mamlakatimiz ta’lim tizimida yo‘qligi kabi muommolar ham aniqlangan. Bu haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Oxirgi 3 yilda oliy ta’lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga yetdi, qabul o‘rinlari 66 mingtadan 181 mingtaga oshdi. Ularning moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo‘yicha mutaxasislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Proffessor-o‘qituvchilarning maoshi o‘rtacha 3.5 barobarga oshirildi. Lekin sifat borasida hali o‘zgarishlar hali sezilmayapti. Ta’lim sifatini yaxshilash o‘quv ishlarini bozor ehtiyojlardan kelib chiqib tashkil etish masalasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, rektorlarining e’tiboridan chetda qolib ketmoqda”- deb takidlab o‘tadi.[569]

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident farmoniga muvofiq, oliy ta’lim

sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratishga alohida e’tibor berilgan.[570] Bu borada amalga oshirilgan ishlar jaddalik bilan amalga oshirilayotganligini quydagi jadvalda ko‘rishingiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar nomi	**O‘lchov birligi**	**Yillar kesimida**					**Mas’ul ijrochilar**
		2019	**2020**	**2023**	**2025**	**2030**	
Nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan davlatxususiy sheriklik shartlari asosida	nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni	5	10	20	28	35	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi

Jadval ma’lumotlarida shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2030 yilgacha 35 ta nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ochish va bitiruvchilarning 50 foizini oliy ta’lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan. Xususan 2014-yilda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida bakalavrlar va magistrlar tayyorlaydigan 66 ta ta’lim muassasasi, shu jumladan 25 ta universitet, 41 ta institut,shuningdek, ikkita ilmiy akademiya, yettita xorijiy filial universitetlar (Moskva davlat universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Turin politexnika universiteti, Xalqaro Vestminster universiteti, Singapur Menejmentni rivojlantirish instituti, Rossiya davlat neft va gaz universiteti. Gubkin, Inha universiteti Janubiy Koreya) davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan. 2021-yilga kelib nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni 2017 yilda 4 tadan 2021 yil 34 taga yetkazildi va oliy ta’lim bilan qamrovning 15 % nodavlat oliygohlar hissasiga to‘g‘ri keldi.571 Oliy ta’lim tashkilotlarining uzoq muddatli raqobat ustunligini yaratish, akademik nufuzini oshirish va xalqaro reytinglarga (QS, THE, ARWU) kirishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida: • Ilg‘or xorij tajribasi asosida (Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya) eng yaxshi rivojlanish dasturi va yuqori salohiyatga ega oliy ta’lim tashkilotlarini xalqaro reytinglarga kirishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan

dasturini ishlab chiqish. • Eng yaxshi rivojlanish dasturiga va yuqori salohiyatga ega bo‘lgan oliy ta’lim tashkilotlarini ochiq tanlov asosida tanlab olish. • Tanlab olingan oliy ta’lim tashkilotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida maxsus Jamg‘arma tashqil etish va KPI asosida mablag‘ ajratish tizimini yo‘lga quyish maqsadga muvofiq.